

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)

Iqbol O'razova¹

Abstrakt

Til muloqot vositasi sifatida ko'rilishi bilan birga nutqiy madaniyatni, millat o'zligini, qadriyatlarini aks ettiruvchi etalon hamdir. Har bir tilning leksikasi shu tilning jozibasini va go'zalligini, imkoniyati va muloqot darajasini belgilab beradi. Tilning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi til birliklaridan biri frazemalardir. Frazemalar tarkibida shu til egasining olamni bilish va qabul qilish haqidagi bilimlari, shu millatning qadriyatlari bilan bog'liq axborotlar, shu tilning ko'chimlarga asoslangan holda ma'no ifodalash qoliplari jamlangan bo'ladi. Frazeologik birliklar eng qadimgi manbalar – tosh bitiklarda ham uchraydiki, bu til egasining nutqni bezashga bo'lgan intilishi dastlabki davrlardan boshlanganidan dalolatdir. Frazemalar mutloq turg'un birlik emas, til zamon va insonlarga qay holatda moslashsa, frazemalar ham shu til tarkibida o'z strukturasi va semantikasini o'zgartirib boradi. Bu esa frazemalarni diaxron aspektida o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirishi tabiiy. Frazemalarning davriy jihatdan o'rganilishi ma'lum frazemaning shakllanishi va semantik taraqqiyotini, etimologiyasini aniqlash bilan birga shu davr tili va qadriyatlari, insonlarning dunyoqarashi, olamni anglash haqidagi muhim xulosalarning yuzaga chiqishiga turtki bo'ladi. Shu ma'noda, ushbu maqolada XIV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy", "Suhayl va Guldursun" asarlarida qo'llangan "holat" semali frazemalar tahlilga tortildi. Frazemalar maydon nazariyasi asosida o'rganilib, "jismoniy holat" semali, "diniy tushunchalar asosida shakllangan holat" semali, "ruhiy holat" semali, "ijtimoiy holat" semali, "tafakkur" semali frazeosemantik guruhlarda tahlil qilindi. Ayrim frazeosemantik guruhlar mikroguruhlarga ajratilgan holda izohlandi.

Kalit so'zlar: *frazema, sema, semema, gradatsiya, farqlovchi sema, sinonimiya, semantik siljish, ma'no taraqqiyoti, frazeosemantik mikroguruh.*

¹ O'razova Iqbol – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

E-pochta: orazovaiqbola@gmail.com

Iqtibos uchun: O'razova, I.A. Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning ikkinchi yarmi manbalari asosida). *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 28-41.

Kirish

Diaxron tilshunoslik bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan muammolarni fan oldiga qo'ya olmoqdaki, ayni muammolardan biri bu frazemalarning diaxron tadqiqidir. Manbalardagi frazemalarni yig'ish, nashr qilish, tadqiqini davriy qiyoslash orqali amalga oshirish til tadrijiy taraqqiyoti uchun muhim xulosalar berishi shubhasiz. Jumladan, XIV asrning ikkinchi yarmiga oid frazemalarni boshqa davrlarda qo'llangan frazemalar bilan qiyoslash bu birliklarning semantik va struktur taraqqiyot yo'li haqida tasavvur hosil qilishimizga, etimologiyasini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tavsifi

O'zbek tilshunosligida frazemalarni dastlab V.Vinogradov semantik xususiyatlari jihatidan frazeologik chatishma, frazeologik birlashma va frazeologik qo'shilmaga bo'lib o'rgangan (Rahmatullayev 1955; Pinxasov 1969, 48; Umarov 1971, 9-12; Mirzayev 1978, 44-45). E.Umarov "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida qo'llangan frazemalarni ham yuqoridagi tasnif asosida tadqiq qiladi. Shuningdek, olim tahlilga tortilgan frazeologik birliklarni umumturkiy va o'zlashma iboralarga ajratgan. (Umarov 1971, 15-17). Keyinchalik A.Hojiyev Vinogradov tasnifini inkor etib, frazemalarni bu tasnif asosida guruhlash o'zini oqlamasligini ta'kidlaydi (Shoadburahmonov; Hojiyev 1980, 142).

Sh.Rahmatullayev frazemalardagi ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, variatsiya, antonimiya, shakldoshlik hodisalariga diqqat qaratib, muammoni o'ttiz mingdan ortiq kartochkalar tahlili asosida ochib beradi (Rahmatullayev 1966.). Olim boshlab bergan bu semantik munosabatga asoslangan tasnif sinonim frazemalar haqidagi monografik tadqiqotga asos bo'lgan (Vafoyeva 2009). Shu o'rinda frazemalarning polisemantik, omonimlik xususiyati o'z tadqiqini kutayotgan muhim muammolardan biri ekanligini ta'kidlaymiz.

Metod va metodologiyasi

Keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan leksemalarga nisbatan qo'llanuvchi maydon va semantik mikromaydon tushunchalarini frazemalarga nisbatan tatbiq qilinishi frazeologik birliklarga semantik jihatdan yangicha aspektda yondashish imkonini berdi. "Til (mazmuniy) mundarijasini maydon metodi bilan o'rganish eng samarali va qulay metodlardan biri bo'lib qoldi" (Iskandarova 1999, 61). Hozirda frazemalarni semantik tahlil qilishda aksariyat tadqiqotchilar maydon metodini afzal ko'rmoqda, chunki, frazemalarning semantik tabiati ham leksemalarga o'xshashdir


(O'razova 2023). Ushbu maqolada frazemalarni leksik-semantik va funksional-semantik maydonlarga ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar

Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, “Suhayl va Guldursun” asarlarida qo'llangan 390 ta (takrorlarsiz) frazema aniqlandi va frazeologik birliklar tabiatidan kelib chiqib, shuningdek bizgacha olib borilgan tadqiqotlarga tayanib, mavjud frazemalar semantik jihatdan besh yirik ma'noviy guruhga ajratildi:

1. Nom bildiruvchi frazemalar
2. Harakat bildiruvchi frazemalar
3. Holat bildiruvchi frazemalar
4. Belgi-xususiyat bildiruvchi frazemalar
5. Shaxsning xulq-atvorini ifodalovchi frazemalar

Frazemalarning semantik statistikasi diagrammada quyidagicha aks etadi:



“Holat” semali frazemalar tahlili

Bilamizki, frazemalarning juda katta qismi shaxsning holatini ochishga xizmat qiladi, shu sabab nutqimizda holat bildiruvchi frazemalar faoldir. Asarlarda ham frazemalarning katta qismini holat ma'nosini ifodalovchi frazemalar tashkil qiladi. Ijodkorlar holat bildiruvchi frazemalarni quyidagi maqsadlarda ishlatgan:

1) qahramonning ichki holatini (quvonch, g'azab, sevis, nafrat, hayajonlanish, qo'rqish kabi) aks ettirish uchun: *jani tōšāk kōrmās – halovatini yo'qotmoq*;

2) qahramonning boshqalarga nisbatan munosabatini aks ettirish uchun: *el ayzin, it tišin bayla* = “tilini qisiq qilmoq”, *kōzgā ilmā* = “pisand qilmaslik”;

3) voqea-hodisaning holatini aks ettirish uchun: masalan, “Suhayl va Guldursun” asarida Urganch shahrining vayron bo'lishi

büdağ savruldı, tupraq botqa bol= frazemasi bilan ifodalangan.

Holat bildiruvchi frazemalarni quyidagi semantik guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin:

"Jismoniy holat" semali frazeosemantik guruh. Holat maydoniga mansub bo'lgan jismoniy holat bildiruvchi frazemalar ham manbalarda kam bo'lsa-da uchraydi. Bu guruhga oid frazemalar "yosh" semali, "tabiiy ehtiyoj" semali, "o'lim" semali mikroguruhlarga mansubdir.

"Yosh" semali mikroguruh. "Yosh" semali holat bildiruvchi frazemalarning barchasi qarilik semasi bilan bog'liqdir. Ushbu frazemalar bir umumiy ma'noni ifodalasa-da, qo'shimcha ma'no qirralari bilan o'zaro farqlanadi. Frazemalarda "qarilik" semasi insonning jismoniy holatidagi turli o'zgarishlarning asosiy planga chiqishi asosida shakllangani mazmuniy o'ziga xoslikni saqlab qolgan. Masalan, "qarimoq" ma'nosi organizmning jismoniy quvvati kamayishi (*beliñdän küč kesil*=), go'zallikning yo'qolishi (*husni bazariniñ ravnaqi keč*=, *alma eñäkinä ajva tonı otur*=), sezgi a'zolari faoliyatining kuchsizlanishi (*közüm bābāki xas bol*=) kabi tabiiy o'zgarishlarning faollashuvi natijasida hosil qilingan. Ushbu semantik guruhga mansub frazemalarning katta qismi arxaiklashgan.

"Qarimoq" ma'nosini bildiruvchi *alma eñäkinä ajva tonı otur*= frazemasi tarkibidagi *eñäk* leksemasi XIV asrda "pastki va yuqorigi jag'" (CЯ, I, 148) ma'nosini anglatgani lug'atlarda qayd etilgan. Talaffuz jihatda shu birlikka yaqin *eñ* leksemasi esa "yonoq" (CЯ, I, 147) tarzida izohlangan. A.Isayev tomonidan tuzilgan XI asr frazemalaridagi somatizmlar jadvalida *eñ* birligi qayd etilgan, lekin *eñäk* somasi berilmagan. Lekin "Qadimgi turkiy lug'at"da *eñäk* leksemasi "yonoq" (DTS, 174), *eñ* birligi esa "yuz", "yonoqlar" (DTS, 174) ma'nosini ifodalashi aytib o'tilgan. Bizningcha, *eñ* – yonoq o'zagiga –*äk* qo'shimchasi qo'shilishidan *yonoq* so'zining ko'plik shakli (ikkilik varianti) hosil qilingan. Yosh turkolog S.Boltabayevning fikriga ko'ra, *tirsak* (*tizr/ak*), *ekizak* (*eki/z/ak*) kabi somalar tarkibidagi -z, -ak, shakllari ikkilik yoki ko'plik shaklidir va bu aksariyat tana a'zolari tarkibida uchraydi. Frazema ma'nosi ham *eñäk* so'zi *yonoq* tushunchasini ifodalashiga ishora qilmoqda, chunki adabiyotda jag'ni olmaga qiyoslash kuzatilmaydi, ammo tarang va qizg'ish yonoqlarni olmaga o'xshatish an'anasi mumtoz adabiyotda mavjud. Bizningcha, *eñäk* leksemasi *eñ* so'zining ko'plik shakli bo'gani va nutqda endi faollasha boshlagani sabab frazemalar tarkibida uchramaydi, shu boisdan A.Isayev jadvalida ham aks etmagan. Frazemalar o'zida bir necha asrlik leksik ma'nolarni

olib yurishini inobatga olsak, XIV asr frazemasi tarkibidagi *en/āk* leksemasi qadimgi ma'nosini – “yonoqlar” ma'nosini ifodalagan, biroq mustaqil leksema sifatida “jag'lar” sememasini anglatgan. Ya'ni leksik birlik semantikasida ma'noviy siljish yuz bergan. Hozirgi o'zbek shevalarida ham *engak* leksemasi jag'larni ifodalaydi. Frazema tarkibidagi *ayva* birligi etimologik jihatdan asl turkiy so'z bo'lib, hozirgi o'zbek tilida o'zlashgan so'z degan tasavvur singib ketgan.

“Tabiiy ehtiyoj” semali mikroguruh. Asarlarda “tabiiy ehtiyoj” semali chanqash, charchash, uxlash, tinglash kabi turli jismoniy holatlarni aks ettiruvchi frazemalar qo'llangan. *Boyazini qurutub, ayizni qajnat*= frazemasi “*chanqamoq*” semasini ifodalab, ikki mustaqil frazemaning kontaminatsiyasidan hosil bo'lgan. Bu ikki frazemaning uyushiq bo'laklar tarzida yonma-yon qo'llanishi alohida ma'nolarni emas, aksincha bir ma'noni – suvga bo'lgan kuchli ehtiyojni ifodalab, “juda chanqamoq”, “quruqshamoq” ma'nolarini ifodalaydi. *Issi tamuz kunlarinda bir kun ejla issi edikim, boyazini qurutub, ayizni qajnatur edi* (GT, 270).

Uzun kechalarni qisqa qil= (uxlamay), *gosh asma*= (eshitmay), *qulaqina tegmagän*= (eshitmagan), *qulaq tut*= (tinglamoq) kabi frazemalar ham qahramonlarda yuz bergan jismoniy holatni bo'rttirib tasvirlashga xizmat qilgan.

“O'lim” semali mikroguruh. Qadim-qadimdan turkiy xalqlar o'lim tushunchasini tabu va evfemizmlar bilan ifodalashgan. “To'nyuquq” bitiktoshida xoqon xotining o'limi *joq bolmish erti* frazemasi (*Qatun joq bolmish arti...* – Malika vafot etgan edi. (Рахмонов; Содиқов 2009, 164), “Kultigin” bitiktoshida Kultigin o'limi *kargak bol*= (*Inim Kul tigin kargak bolti, ozum saqintim...* – *Inim Kultigin vafot etdi, o'zim alam chekdim...* (Рахмонов; Содиқов 2009, 174) evfemizmi bilan berilgani fikrimiz dalili bo'la oladi. Turkiylar “o'lim” semasini nafaqat tabular bilan, balki turli evfemistik xarakterdagi frazemalar bilan ifodalashga harakat qilishgan. Z.Xolmanovanning qayd etishicha, “Boburnoma”da “o'lmoq” tushunchasi o'n to'qqiz xil shakldagi frazema bilan ifodalangan. Asarning o'ttuzga yaqin o'rnida “o'lmoq” tangri nomi bilan bog'lab aks ettirilgan (Xolmanova 2007, 61). “O'lim” semali frazemalarni nutqda ifodalashga qadimdan xalqimizda juda ehtiyotkor yondashilgan. Sababi har bir insonga noxush xabar aytilganda yoki yetkazilganda eshituvchi inson tomonidan doim ham bosiqlik bilan qabul qilinavermagan. “Boburnoma” matnida “o'lim” semasini ifodalovchi 20 dan ortiq frazemaning borligi bizning ushbu fikrimizga yaqqol dalildir” (Мухаммадиева 2021, 85). XIV asrning ikkinchi yarmiga oid manbalarda 24 ta frazeologik birlik “o'lim”

semasi bilan bog'liqdir. Ushbu frazemalar o'lim tushunchasi bilan turli holatlarda bog'lanadi. Ayrim frazemalar qahramonning tabiiy o'limini ifodalasa, ayrimlari qatl qilingan obrazlarni izohlash uchun qo'llangan, ayrim frazemalardan esa hayotini xavfga qo'yib, o'lim sari tik borgan timsolni tasvirini berish uchun foydalanilgan.

Quyidagi jadvalda o'lim semali frazemalar tasnifi berilgan:


T/r	Frazemalar	Evfemistik frazemalar ifodalagan ma'nolar
1	<i>Dünjadan ket=, žähandan ket=, žan čiq=, žan tärk et=, täñri kötür=, vüžüdiniñ ajaqi äžäl balčiqına bat=, žan taslim qil=</i>	o'lmoq (o'limning tabiiy yuz berishini ifodalovchi frazemalar)
2.	<i>Öz qani bilän elin jüv=</i>	o'z o'limiga sabab bo'lmoq
3.	<i>Köp qan aqit=, hajatiniñ kökin kes=, qanin tök=, baši ket=</i>	o'ldirmoq
4.	<i>Könlin ölümgä qoj=, öz ajayi bilä gür ayzına kel=, žandın el juv=, žan fida qil=, žanini tartiq qil=, žanin ber=</i>	o'limiga rozi bo'lmoq
5.	<i>Bašini, žanini ber=; baš ojnab, žan tärkin ur=; žanni xataryä qoj=, žan tärkin ur=</i>	o'lishini bilgan holda hayotini xavf-xatarga qo'ymoq
6.	<i>Žähandan tojmadi</i>	o'limni istamaslik

Ushbu frazemalarning aksariyati hozirgi o'zbek tilida mavjuddir. Jumladan *dünjadan ket=* frazemasida *dunyodan o'tmoq* tarzida, *žan čiq=* frazemasida *joni chiqmoq* tarzida, *žähandan tojmadi* frazemasida *hayotga to'ymaslik* shaklida adabiy tilda mavjuddir.

Adabiy tilda bo'lmagan *täñri kötür=, hajatiniñ kökin kes=* kabi frazemalar *xudo olmoq, ko'kayini kesmoq* tarzida o'zbek xalq shevalarida uchraydi.

“Diniy tushunchalar asosida shakllangan holat” semali frazeosemantik guruh. Asarda islomiy qarashlar asosida hosil bo'lgan frazemalar ham alohida semantik maydonni tashkil qilib, ularda islomiy qadriyat sanalgan saxovat ko'rsatish, nafsni tiyish, ustoz shogirdlik an'anasi bilan bog'liq qarashlarni emotsional tasvirlash maqsad qilingan. Jumladan, *dünja tarkin ur=* frazemasida “dunyo ne'matlaridan voz kechib uzlatga chekinmoq”, *etiқad bayla=* frazemasida “ishonmoq”, *etäkin tut=* frazemasida “ergashmoq, ustoz deb bilmoq” ma'nolarini ifodalaydi: *Bu dünja tarkin uryan zahid erniñ, Qatinda bolsa altun tay baqmas (GT, 226).*

“Saxovat qilmoq” ma’nosini anglatuvchi frazeologik birliklar “Gulistoni bit-turkiy”da juda faol bo’lib, Sayfi Saroyi “saxiylik” semali yettita frazemani sinonim sifatida qo’llagan. Frazeologik qator a’zolarining denotativ ma’nosi bir xil bo’lsa-da, ushbu frazemalar gradatsion semaga ko’ra farqlanadi:



Kärämğä ellärin aç=
Käräm elin aç=
Säxa dadin ber=
Süfrä tök=
Käräm ulaş=
Käräm körgüz=
Himmät belin raybat eli bilän bayla=

“Ijtimoiy holat” semali frazeosemantik guruh. Ayrim frazemalar qahramonning ijtimoiy mavqeyini ham anglatadi. Bu kabi frazemalar semantik tarkibida “mansab” semasining mavjudligi bilan o’xshashlik hosil qiladi. *Elin, ajaqin öp=* (“hurmat ko’rsatmoq”), *başı kökkä jetiş=* (“yuqori darajaga erishgan”), *eliñdä Sulajmança quvvat bol=* (“hokimiyatga ega bo’lmoq”) frazemalari kuch va hokimiyatga ega bo’lgan obrazga ijtimoiy mavqeyi past bo’lgan qahramonning munosabatini aks ettirish uchun qo’llanadi. *Dävrän sür=* (“rohatda yashamoq”), *žähanni tut=* (“egallamoq”), *ulus tut=* (“boshqarmoq”) frazemalari esa mansabga yoki biror ijtimoiy mavqega ega qahramonning holatini ochib berishga qaratilgan. *Ajaqdan tüş=* (“mansabidan ayrilmoq”), *özgälär elindä bol=* (“birov tasarrufiga o’tmoq”) frazemalari esa mansab va amaldan ayrilgan obrazning holatini ifodalashga qaratilgan.

Ushbu mikromaydonda jamiyatning ikki sinfi o’rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni ochib beruvchi frazemalar o’ziga xos maydonni tashkil qilgan. Manbalarda jamiyatdagi insonlarning mol-mulkka egaligini ko’rsatuvchi *eli bayli* frazeması “imkonsiz, imkoniyati yo’q” ma’nosini anglatgan: *...bajlardan başlab sözni bu jergä keltürdikim, faqirlarniñ qudrati eli bayli dağı bajlarniñ iradati ajaqi sinib turur (GT, 295);* “yo’qsil, qashshoq, kambag’al” sememası *eli avuçi tar* frazeması bilan anglashilgan: *Eli avuçi tar miskinlärğä altun aqça ulaşturdi dayi müsafirlärğä süfrälär tökdi (GT, 240).* “Qutadg’u bilig”da ushbu frazemaning omonimi sanalgan *elgi keñ, keñ elig, elgi*

aqi birliklari qo'llangan va "saxiy, qo'li ochiq" ma'nolarini ifodalagan (Абдужаббарова 2011, 129).

"Ruhiy holat" semali frazeosemantik guruh. Inson ichki olami turli hissiyotlar va kechinmalarga boy. Kishilar shu kechinmalarini ochib berishda obrazli va yorqin frazemalarga tayangan. Asarlarda ham ichki ruhiyatni ochib beruvchi frazemalar juda faol qo'llangan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ruhiy holatni ifodalovchi frazemalar umumiy frazemalarning choragini tashkil qiladi. Hissiyot bildiruvchi frazemalar asarda azob, qiyinchilik, mashaqqat, quvonch, g'azab, sevgi kabi turfa kechinmalarni ifodalashga xizmat qilgan. Ruhiy holatni bildiruvchi frazemalar ichida eng faoli "azob" semali frazemalar bo'lib, bu frazemalarning shakllanishida *jon, ko'ngul, dil, azob, bag'ir, zahmat, mehnat, mashaqqat, javr, ranj* kabi abstrak leksemalar semantik tayanch komponent vazifasini bajargan. A.Mamatov bunday frazemalarni spontan xarakterdagi frazemalar sifatida qayd etadi (Mamatov 1999, 143). Spontan xarakterdagi frazemalar qisman semantik qayta shakllanish asosida yuzaga keladi. Masalan, asarlarda qo'llangan *žävrin ček=, kuč kel=, bayri jan=, qajyu je=* kabi frazemalar, asosan, bir komponentning ko'chma ma'nosi asosiga qurilgan. Bunday frazemalarni tilda erkin bog'lanma tarzida qo'llab bo'lmaydi.

Mumtoz adabiyotda "sevgi" semali frazemalar ko'pligi va rang-barangligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu mikromaydonga oid frazemalarning aksariyatida *köñül* leksemasi semantik tayanch komponent sifatida kelgan: *könli eldän ket=, könligä ataš tašla=* kabi.

Asarlarda sevib qolgan oshiq holati *tuzayına tutul=, ixtijar inänin elindän biraq=, ixtijar inänin elindän ket=, damiñizdın qutulmas* frazemalari bilan ochib berilgan bo'lsa, yorning ma'shuqni o'ziga moyil qilishi *könlin säjd et=, uçar quşni, aqar suvni tij=, žan-u köñülni al=* frazemalari bilan berilgan.

Asardagi ruhiy holatni ifodalovchi frazemalarni quyidagi mikromaydonlarga ajratish mumkin:

T/r	Mikromaydon nomlari	Frazemalar
1.	"Azob" semali mikrogrup	'azäb içrä jat=, bayri miñnät otına kabab bol=, mašaqat ček=, miñnät ček=, zahmat ček=, bayri qan bilän tol=, bayrini kabab et=, bayri jan=, baši üzrā žävr taši jay=, baši jastuqqa tegmädi, bašini xam et=

2.	“Sevgi” semali mikroguruh	könli eldän ket=, könligä ataş taşla=, tuzayına tutul=, ıxtıjar inänin elindän bıraq=, ıxtıjar inänin elindän ket=, damñizdın qutulmas, könülñi avla=, könlin säjd et=, uçar quşñı, aqar suvñı tıj=, žan-u könülñi al=.
3.	“G‘azab” semali mikroguruh	yazabı kel=, içi jan=, könülñi qanı qajna=
4.	“Afsus” semali mikroguruh	elin tişla=, nadamat je=
5.	“Quvonch” semali mikroguruh	başı kökkä jetiş=, eǵğülük jüzün körmädi

Asarlarda qoʻllangan *başını xam et=, köz kör, qulaq kar bol=*, *‘alämni orta=* kabi hissiyot semali frazeologizmlar leksik oʻzgarishsiz holatda frazeologik fondimizda mavjud. Shu bilan birga ayrim frazemalar leksik qayta shakllangan holda hozirgi oʻzbek tilida ishlatilmoqda. Lekin ayrim shevalarda ushbu frazemalarning XIV asrda qoʻllangan varianti ham saqlanib qolgan. Jumladan, *közgä ilmädi* frazemasi “Muhabbatnoma”da “*pisand qilmaslik*” ma’nosini ifodalagan: *Könül ikki žahannı közgä ilmäs, Seniñ ‘ışqıñ umrñiñ hasili bäs* (M, 29).

Ushbu frazemaning *nazarga ilmaslik* (O‘TIL, II) varianti bosh shakl sifatida oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida qayd etilgan. Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida ham ushbu frazema ham shaklan, ham mazmunan ayni holda qoʻllangan: “*Mingboshining falon-falonlari bizni koʻziga iladimi?*”, – deb xabar ham qilmabmiz (“Kecha va kunduz”, 62).

Baʼzi frazemalarda esa semantik kengayish holatlari uchraydi. Masalan, manbalarda qoʻllangan *elin jüv=* frazemasi manbalarda “umid uzmoq” ma’nosida kelgan: *Qari bolduñ jigitlikdän elin juv, Bilärsänkim, jana qajtmas aqar suv* (GT, 283). Choʻlpon asarida ushbu frazema semantikasida siljish yuz berib, “*umid uzish*” semasi ikkinchi planga tushgan, “*voz kechmoq*” semasi esa bosh oʻrinda aks etgan: *Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa oʻzboshimcha harakatlariga yoʻl qoʻyib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qoʻl yuvishimiz kerak boʻladi* (“Kecha va kunduz”, 241).

Jadvalda leksik jihatdan oʻzgarishga uchragan, ammo semantik tomondan oʻzgarmagan ayrim frazemalarning hozirgi muqobillari berildi:

XIV asrning ikkinchi yariga oid manbalarda	Hozirgi o'zbek adabiy tilida
Ajaq astında qoj=	Oyoq osti qilmoq
Žarahatī üstünā tuz qoj=	Yarasiga tuz qo'ymoq
Elin tīšla=	Barmog'ini tishlamoq
Bayrī qan bilān tol=	Bag'ri qon bo'lmoq
Qanīm bayīšla=	Qonidan kechmoq

Asarlarda qo'llangan ayrim frazemalar bugungi kunda arxaiklashgan bo'lsa-da, ularning ta'sirchan ma'nosi ahamiyatlidir. Masalan, *ot söndürib köz qoj=* frazeması "yomonlikni oxirigacha tugatmaslik, biror ishni oxiriga yetkazmaslik" ma'nolarini anglatadi. Frazemadagi *köz* leksemasi "жар", "раскаленный уголь" (СЯ, I, 614) ma'nolarini ifodalaydi (Hozirgi o'zbek shevalarida qo'llanuvchi "olovning ko'zini ochmoq" birligida shu mazmun saqlanib qolgan. Qolaversa, o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi xalq vakillari tilidagi "qo'ra" leksemasi "ko'ra" tarzida talaffuz qilinadi va bu so'z etimologiyasini ham *ko'z* leksemasiga bog'lash mumkin.). Frazema erkin bog'lanmaning birlamchi transpozitsiya jarayonida barqaror birikmaga aylangan. Frazemaming hosil bo'lishi ibtidoiy jamoa davridagi olovni o'chib qolmasligi uchun asrash, cho'g'ni saqlash odatiga borib taqaladi. Keyinchalik erkin birikmani metaforik ko'chirish orqali "tashvishli muammoni oxirigacha yakunlamaslik" semasini ifodalovchi frazema shakllangan.

Ushbu mikromaydonga *baši xoš, ne kündüz sabrī bar edi, ne kečā qararī, könli parišan* kabi sifat frazemalar bilan birga shaxsning ruhiy holatini ochib berishga qaratilgan *zanjir üz=* kabi fe'l frazemalar ham taalluqlidir. Qo'shma gap shaklida bo'lgan *ne kündüz sabrī bar edi, ne kečā qararī* frazeması "behalovat" sememasini ifodalab, asarda sevib qolgan qahramonning ruhiy holatini ochib berish, halovatini yo'qotgan oshiq obrazini chizish maqsadida qo'llangan: *Ayzi ta'amdan, közi ujqudan kesilib, ne kündüz sabrī bar edi, ne kečā qararī* (GT,262). Ushbu frazema hozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan.

Baši xoš iborasi ham sevib qolgan obrazning ruhiy holatini ochib berish uchun qo'llangan bo'lib, ishqdan sarmast qozining behud holatini aks ettiradi. *Hamadan qazisini ajturlar, bir bajtar oylan bilä baši xoš edi* (GT, 275).

Rizqi parišan adamij könli parišan däm-bädäm (GT, 298). Ushbu jumlada ikkita frazema qo'llangan bo'lib, *rizqi parišan* frazeması "to'yib ovqat yemagan, och" ma'nolarini anglatasa, *könli parišan* frazeması esa "xayoli tarqoq" ma'nosini anglatgan.

“Tafakkur” semali frazemalar. Insonning ong va idroki bilan bog'liq frazemalar qahramonlarning mavhum holatini, ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, obrazlardagi behudlik holati *‘aqli başidin ket=, ‘aqlindan ket=, huşdin ajril=, özdän keç=, özindin jat bol=, özümni unut=* frazemalari bilan berilgan. *“O‘ylamoq”* ma’nosi muallif qalamiga mansub *başin tafakkür jaqasına çekmaq* frazemesi bilan ifodalansa, *dımayıdan kôtär=, başımdan ketmä=* frazemesi “unutish” semasini anglatadi.

Manbalarda frazemalarni ketma-ket qo'llash orqali tadrijiy san'atining go'zal namunalarini hosil qilish holat frazemalarining uyushishi orqali berilgan: *Baştin keçib, qara qan içib, qan jaşin saçib, Tabman köñül tilagini, vohasrato, köñül (A, 122).* Yoki: *Bir kimersäniñ köñli eldän ketib dayi žan tärkin urub, nüzäri halakat jerinä tüşüb turar edi (GT, 262)* kabi.

Xulosa

-Holat semali frazemalar badiiy asarda qahramonning ichki holatini (quvonch, g'azab, sevishtir, nafrat, hayajonlanish, qo'rqish kabi), qahramonning boshqalarga nisbatan munosabatini, voqea-hodisaning holatini aks ettirish uchun xizmat qiladi va frazemalar bilan ifodalangan tasvir qahramon ruhiy olamidagi o'zgarishni o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalantiradi.

-Manbalarda bir umumiy ma'noni ifodalagan, bir semantik guruhga mansib frazemalar ko'p uchraydi, ammo ular ijobiy yoki salbiy semasiga ko'ra yoki ma'noni ifodalashdagi gradual semaga ko'ra farqlanib turadi.

-Manbalarda “ruhiy holat” semali frazemalar nisbatan faol qo'llangan. Holat bildiruvchi frazemalarning katta qismi transpozitsiya jarayoni mahsulidir. Troplardan metafora va metonimiya usuli faol hisoblanadi. Holat bildiruvchi frazemalarning aksariyati aynan yoki o'zgargan holatda adabiy til va shevalarda mavjud.

Adabiyotlar

- Абдужаббарова, Ф. (2011). “Қутадғу билиг”даги шахс белгиларининг лексикаси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент.
- Вафоева, М. (2009). Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент.
- Искандарова, Ш. (1999). Ўзбек тили лексикасининг мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. докт...дисс. – Тошкент.
- Маматов, А. (1999). Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш

- масалалари. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент.
- Муҳаммадиева, Д. (2021). “Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент.
